



## USING WEBSITES WHEN WRITING ARTICLES

Soyibova Feruza Azamat qizi

Students of Samarkand State Institute of Foreign Languages

Hayitova Umida Mardon qizi

Students of Samarkand State Institute of Foreign Languages

Bahriddinova Zarnigor Bahodir qizi

Students of Samarkand State Institute of Foreign Languages

### Annotation:


This article is devoted to the use of different websites in writing articles, their advantages and disadvantages, the ability to use websites effectively, the measures and measures taken in the field of information security in society.

**Keywords:** website, research, information, article, information security.

Bugungi zamonda har bir sohada kundan kunga jadal oʻzgarishlar koʻzga tashlanib bormoqda. Shunga monand xolda inson hayoti sur'atlari ham tezlik bilan oʻzgarib kelmoqda. Xususan, birgina internet sohasini olib qaraydigan boʻlsak, vaqt o'tgan sayin internetdan foydalanadigan foydalanuvchilarning soni ham va shu bilan bir qatorda internetning ularga ko'rsatadigan xizmati sifati ham yaxshilanib bormoqda.

Foydalanuvchilar sonining ortishi ham, xizmat sifatining yuqorilashishi ham veb-saytlardagi ma'lumotlarning aniqligi, izchilligi va daliliy asoslanganligiga bog'liq. Biz har kuni qandaydir ma'lumot izlab turli xil veb-saytlarga yuzlanamiz va bu orqali o'zimizga kerakli bo'lgan axborotlarning hech qanday qiyinchiliklarsiz makon va joyning ahamiyati bo'lmagan holda oson usulda qo'lga kiritamiz.

Birorta ilmiy ish yoki maqola yozishga kirishishimizdan oldin dastlab maqola mavzusiga e'tibor bergan holda foydali adabiyotlar, qoshimcha informatsiyalar yig'ib olamiz. Buning uchun albatta veb-saytlarga murojaat qilamiz. Veb-saytlarda istalgan mavzudagi ma'lumotlarning topish mumkin. Birgina ma'lumot emas ularga berilgan shartlardan ham xabardor bo'lishingiz mumkin. Bu esa osha saytdagi ma'lumot sifatini belgilab beradi.



Ayni paytda veb-saytlar juda ko'p bo'lib ulardagi ma'lumot qamrovi ham keng. Birgina Ziyonet veb-saytini oladigan bo'lsak unda barcha yo'nalishlarda, barcha sohalarda qo'llanma sifatida ishlatiladigan turli xil yosh kategoriyalariga mo'ljallangan malumotlar bazasi mavjud. Hech qanday ovoragarchiliklarsiz siz o'zingiz istagan ma'lumotni bir necha daqiqa ichida olasiz.

Har bir yonalishning ham o'ziga xos kamchilik va yutuqlari boladi. Ilmiy ishlar qilishda yoki maqola yozishda veb-saytlarning afzallik tomonlari haqida quyidagicha soz yuritish mumkin;


Birinchiidan, veb-saytlar orqali istalgan turdagi ma'lumotni topish mumkin. Vaqtingizni behuda sarflab kutubxonadan kitob olib, varaqma varaq malumot izlashingizning zarurati yoq. O'zingizga kerakli veb-saytlarga kirib, maqola mavzusini yozsangiz barcha malumotlar kelib chiqadi.

Ikkinchiidan, Ziyonet, Library.uz va yana shunga o'xshash boshqa saytlardagi malumot va informatsiyalar ishonchli boladi. Negaki har bir saytga qabul qilinayotgan malumot saytda joylanishidan oldin bu ma'lumotning aniqligi tekshiriladi. Bu saytlardagi ma'lumotlarning ishonchli ekanligidan darak beradi. Uchinchiidan, veb-saytlardan nafaqat ilmiy mavzularda balkim qolgan barcha sohalarga aloqador malumotlar topa olasiz. Ziyonet axborot ta'lim tarmog'ining portali oz ichiga yoshlar, oqituvchilar, shuningdek aholining boshqa qatlamlarini oladi va ular uchun kerakli axborotni beradi.

To'rtinchiidan, veb-saytlarda turli yoshdagi, turli toifadagi va shu bilan birga turli jamiyatdagi foydalanuvchilar boladi. Qisqacha qilib aytganda, butun jahon bo'ylab veb-saytlardan keng miqyosda foydalaniladi. E'tiborli jhati shundaki, Internetdagi qaysi bir saytga kirmang, qanday bir ma'lumot olmang osha ma'lumotning pastki qismida ko'pchilik, ya'ni omma e'tibori tomonidan bildirilgan izohlar, sharhlar boladi. Masalan, siz Ziyonet veb saytidan maqola izlashga berdingiz va ayni osha mavzudagi maqolani ham topdingiz. Shu bilan bir qatorda siz maqolaga berilgan sharhlardan ham maqola haqida bilishingiz mumkin.

Hamma sohada ham afzalliklar bo'lgani kabi kamchiliklar ham uchrab turadi. Shuningdek, veb-saytlardagi ma'lumotlardan foydalanishda ham.

Yuqorida maqola yozishdan oldin dastlab u haqida ma'lumot izlaymiz deb otdik. Shunday veb-saytlar borki, ularda maqolani oqish uchun yoki uni yuklab olish uchun, avvalo o'zingizning maqolangizni saytga joylashingiz kerak boladi yoki siz izlayotgan malumot aynan sizga kerakli tilda chiqmasligi mumkin.



Ba'zi bir saytlardagi ma'lumotlar juda ilmiy uslubda yozilgan bo'lib bu esa uni tushunishda biroz qiyinchilik tug'diradi. Sizning yozgan maqolangizni butun omma o'qiydi. Agar birorta bir tushunarsiz, galiz so'zlardan foydalangan bo'lsangiz bu maqolangiz sifatini tushishiga olib keladi.

Bundan tashqari u sizni o'ziga izsiz bog'lab oladi. Negaki siz har vaqt ma'lumot izlayotganingizda darhol saytlarga kirib ma'lumot olasiz. Agar bu ahvolda ketishni davom ettiraversa, bizga kutubxonalarining ham axborot resurs markazlarining ham keragi bo'lmay qoladi. Bu bilan u sizni biroz dangasalikka olib boradi. Biz kitob oqimaganimizdan keyin hech qanday kreativ g'oyaga ham.ega bo'lolmaymiz.

Ammo veb saytlardan ham oz maqsadimiz yo'lida to'g'ri fodalanishimiz kerak. Bunda belgilangan qat'iy qonun qoidalar ham mavjud. Masalan siz birorta veb saytga ma'lumot joylashtirayotganingizda avvalo "axborot xavfsizligi"ga amal qilishingiz shart. Axborotlarni aynan qaysi manbadan olinganligi ko'rsatilishi lozim.

Shu o'rinda Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentabr 707-son qarorini hamda "Axborotlashtirish to'g'risida" gi Ozbekiston Respublikasi Qonunini eslatib o'tishni joiz deb bildim. Qonunga muvofiq, butunjahon Internet tarmogida axborot xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish, axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini muhofaza qilish maqsadida veb-saytdan va (yoki) sahifalaridan foydalanish maxsus vakolatli organ O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan quyidagi hollarda cheklanishi aytilgan:


O'zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zorlik bilan o'zgartirishga da'vat etish;

urush, zoravonlik va terrorizmni, shuningdek, diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizm goyalarini targ'ib qilish;

davlat siri bolgan ma'lumotlarni yoki qonun bilan qoriqlanadigan boshqa sirni oshkor etish;

milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qozgatuvchi, shuningdek, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obrosiga putur yetkazuvchi, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yol qoyuvchi axborotni tarqatish;

Saytlarga shaxsiy ma'lumotlaringizni joylashtirayotganingizda ehtiyotkor bo'lishingiz kerak. Negaki siz o'zingizning maqolangizni saytga joylashtirdingiz



ammo uni boshqa bir kishi yuklab olib o'zingiz nomi ostida chop etdi. Bunday holatda siz maqolangizni mualliflik huquqi bilan himoya qilishingiz kerak. Aks holda yuqorida tilga olingan holat sodir bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari shu qadar keng rivojlanganki, siz qaysi saytga qachon tashrif buyurgan buyurgansiz, hattoki qidirilgan kalit sozlarni ham o'zida saqlab qoladi.

Agar saytning boshlanishida <http://> belgisi bor bo'lsa, saytning shubhali ekani ehtimoli yanada oshadi. Xavfsiz va katta saytlarning deyarli barchasi hozir <https://> protokoli bilan ochiladi. "https" belgisi saytning xavfsizlik sertifikatiga ega ekanligini aynan <https> belgisi ko'rsatib turadi.

Biror saytga kirish uchun uning sizga ma'lum manzilini brauzerga yozib kiritganingizda, ENTER tugmasini bosishdan oldin, manzilni to'g'ri yozganingizga yana bir bor ishonch hosil qiling. Agar bir dona so'zni xato yozgan bo'lsangiz, haqiqiy saytga o'xshagan, lekin qalbaki bo'lgan boshqa bir saytga kirib qolishingiz mumkin.

Saytda ro'yxatdan o'tishdan oldin dastlab osha tarmoqdan foydalanish qoidalari bilan tanishib chiqish juda ham muhim. Qoidalar juda uzun yoki tushunarsiz bo'lganligi sabab ko'pchiligimiz oxirigacha oqib chiqmaymiz, ammo bunday saytlar, odatda, mas'uliyatni zimmalaridan soqit qilish uchun ko'p hollarda to'liq mas'uliyatni foydalanuvchi ya'ni bizni zimmamizga yuklaydi. Masalan, tarmoqqa qo'yilgan har qanday media fayl saytning mulkiga aylanadi, degan shart bo'lishi mumkin. Agar bu kabi shartlarga norozi bo'lsangiz, saytga a'zo bo'lmang.

Xulosa qilib aytganda, maqola yozishda ijtimoiy tarmoqlar, turli xil ommaviy veb saytlar juda ham zarur. Chunki veb saytlardan butun dunyo bo'ylab keng foydalaniladi. Ammo har bir narsadan me'yoriy bo'lgani kabi inson faqat internet veb-saytlarga suyanib qolmasdan balkim tafakkur qilib yechim topish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Butunjahon Internet tarmogida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida, 1-ilova.
2. Ozbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tarqatilishi taqiqlangan axborot mavjud bolgan Internet tarmogi veb-saytidan va (yoki) veb-sayt sahifalaridan foydalanishni cheklash tartibi to'g'risida NIZOM.
3. [info@texnoman.uz](mailto:info@texnoman.uz)